



**XORIJUY XOM-ASHYO VA MATERIALLARNI BOJXONA HUDUDIDA
QAYTA ISHLASHDA BOJXONA REJIMLARI BELGILARI VA
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI TAHLILI**

Mamajonov Oybek

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy xom-ashyo va materiallarni bojxona hududida qayta ishlash jarayonida qo'llaniladigan bojxona rejimlarining huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. Bojxona kodeksida belgilangan "qayta ishlash uchun ruxsat etilgan hudud" rejimi, uning asosiy belgilar, rasmiylashtirish tartibi va amaliyotda uchraydigan muammolar yoritilgan. Shuningdek, ushbu rejim orqali milliy ishlab chiqaruvchilar uchun yaratiladigan imkoniyatlar, soliq va boj imtiyozlari, hamda eksport salohiyatiga ta'siri o'r ganiladi. Tadqiqot natijasida mazkur rejimni qo'llashda yuzaga keladigan huquqiy va amaliy muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bojxona rejimi, xorijiy xom-ashyo, qayta ishlash, bojxona rasmiylashtiruvi, ruxsatnoma, boj va soliq imtiyozlari, ichki ishlab chiqarish, eksport salohiyati, bojxona hududi.

Kirish. Bojxona rejimi – O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarning maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui.

Bojxona rejimi mamlakat hududiga kirib kelayotgan, undan o'tib ketayotgan yoki chiqib kelayotgan tovarlar va transport vositalarni joylashtirish uchun zarur bo'lgan qoidalardir.

Bojxona rejimlarini bir qator belgilariga ko'ra klassifikatsiya qilish mumkin, bu esa ma'lum bir ma'noda guruhlash imkoniyatini beradi:

Birinchi guruhga tashqi savdo aloqalarini eng muhim operatsiyalarni o'zida jamlovchi rejimlarini kiritish mumkin-import, eksport reimport, reeksport.

Ikkinci guruhga vaqtincha olib kirish (olib chiqish), vaqtincha saqlash, bojxona ombori kabi bojxona rejimlarini kiritish mumkin. Bu rejimda joylashtirilgan tovarlar vaqtinchalik xususiyatiga ega bo'lib, rejimda turish vaqt qonun hujjatlari bilan cheklangan.

Uchinchi guruhga erkin bojxona zonasi va erkin ombor bojxona rejimlarini kiritish maqsadga muvofiq. Chunki bu ikkala rejim O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasida tashkil qilinishiga qaramasdan O'zbekiston Respublikasi bojxona





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



hududidan tashqarida deb qaraladi.

To'rtinchi guruhda bojxona nazorati ostiga turadigan tovarlar joylashadigan bojxona rejimlari kiritiladi. Bular boj olinmaydigan savdo do'konni, qayta ishslash bilan bog'liq bojxona rejimlarini kiritish mumkin.

Rejimlarni guruhlash jarayonida beshinchi va oltinchi guruhnini shakllantirishda M.P. Shestakovani fikriga qo'shilish mumkin. Unga ko'ra beshinchi guruhnini tashqi iqtisodiy faoliyatni tugatish bilan bog'liq bojxona rejimlari tashkil qiladi. Bular «yo'q qilish» va «tovardan davlat foydasiga voz kechish» rejimlaridir.

Oltinchi guruhnini yakka bojxona rejimi **tranzit** tashkil etadi. Chunki bu bojxona rejimida tovarlar mamlakat chegarasini kesib o'tadi, ammo mamlakat hududida realizatsiya qilinmaydi (Tamojennoye pravo M. 1998. b.161 . Rejimlarni guruhlashni boshqacha tartibi ham adabiyotlarda uchraydi. Qarang: 1) Yuqoridagi darslik; 2) Rossiyskoye tamojennoye pravo. M. Norma. 1997.b.222; 3) Kommentarii TK RF M. 1996. b. 42 .).

Guruhlashni ancha sodda usulini ham taklif qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: bu 1- guruh bojlar to'lovlariga tortiladigan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llaniladigan bojxona rejimlari: import, eksport.

2 - guruh bojlarga, bojxona to'lovlariga tortilmaydigan (yoki qisman tortilmaydigan) iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydigan (yoki qisman qo'llanilmaydigan) bojxona rejimlari: reimport, reeksport, tranzit, vaqtincha olib kirish (olib chiqish), vaqtincha saqlash, bojxona omborlari, erkin bojxona zonasasi, erkin ombor, boj olinmaydigan savdo do'konlari, qayta ishslash bilan bog'liq rejimlar, yo'q qilish, davlat foydasiga voz kechish.

Mamlakat bojxona chegarasida harakatlanayotgan tovarlar va transport vositalari xarakati hamda maqsadini uni egalari (tashuvchi)lari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar belgilaydi va u bojxona rejimini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi bojxona rejimlarini 4 guruhga bo'ladi:

1. Asosiy bojxona rejimlari:

- tovarlarni ichki iste'mol uchun chiqarish;
- eksport;
- xalqaro bojxona tranziti.

2. Iqtisodiy bojxona rejimlari:

- bojxona hududida qayta ishslash;
- ichki iste'mol uchun qayta ishslash;
- bojxona hududidan tashqarida qayta ishslash;
- vaqtincha olib kirish;
- bojxona ombori;





- erkin bojxona zonasasi (erkin ombor).
- 3. Tugatuvchi bojxona rejimlari:
 - reimport;
 - reeksport;
 - yo‘q qilish;
 - davlat foydasiga voz kechish.
- 4. Maxsus bojxona rejimlari:
 - vaqtincha olib chiqish;
 - bojsiz savdo;
 - ehtiyyot qismlarini boshqa joyga olib o‘tish;
 - boshqa maxsus bojxona rejimlari.

Bojxona rejimlarini guruhlarga bo‘lishni asosida qanday mezonlar yotganidan qat’iy nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatning konkret qatnashchisi uchun tanlangan bojxona rejimi yagona va maxsus bo‘lib hisoblanadi (Xalipov S.V., 2004).

Tovarlarni erkin muomalaga chikarish bojxona rejimi import kontraktlari, ya’ni O‘zbekiston ichki bozorida realizatsiya qilish uchun keltirilgan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ko‘pchilik hollarda bu «import» bojxona rejimi deb ham yuritiladi.

«Import» deganda mamlakat rezidentlarining norezidentlardan tovarlar sotib olishi va uni mamlakatga tadbirkorlik faoliyati ko‘rinishida olib kirishi tushuniladi, - deb yozadi A.Nazarov (Nazarov A., 2003).

Ammo, bizning fikrimizcha, tovarlar importi, birinchidan, norezidentlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin bo‘lsa, ikkinchidan, undan hamma vaqt foyda olish maqsadi ko‘zlanmasligi, masalan shaxsiy foydalanish maqsadi ham bo‘lishi mumkin va bundan xulosa shuki. tovarlar importi tadbirkorlik faoliyatidan tashqari ham bo‘lishi mumkin

Tovarlarni erkin muomalaga chikarish bojxona rejimida tovardan qayta foydalanish import qiluvchining ixtiyorida bo‘ladi. Import qiluvchi tovarlar va transport vositalarini sotishi, almashtirilishi, o‘zida qoldirilishi mumkin.

Aytish mumkinki, erkin muomalaga chiqarish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar mamlakat hududida doimiy ravishda qoladi va uni olib kirgan shaxsda qaytarib olib chiqib ketish majburiyati bo‘lmaydi. (17-modda).

Tovarlarni bu rejimga joylashtirish uchun bir qancha shartlarga rioya qilish lozim:

Birinchidan, tovar uchun bojxona boji, soliqlar va bojxona to‘lovlarini (bojxonada rasmiylashtirilganlik uchun yig‘im kabilar) to‘lanishi;

Ikkinchidan, iqtisodiy siyosat choralarini va boshqa cheklanishlarga rioya qilinishi





lozim (litsenziyalash, kvotalash, sertifikatlashtirish, davlat organlari nazoratidan o‘tkazish va boshqalar);

Shundan keyin bu tovarlar bojxona maqsadlarida O‘zbekiston tovarlari sifatida qaraladi.

Yuqoridagi ko‘rsatilgan holatlar bu rejimga joylashtirilgan tovarlarni qaytarib olib chiqib ketishni taqiqlamaydi.

Agarda biror bir sababga ko‘ra, masalan, bozorning o‘zgarishi oqibatida tovarni olib kirgan shaxs bu tovarni olib chiqib ketish istagini bildirsa, unga ruxsat beriladi. Bunday holda tovar egasi o‘z tovarini BKning 20 – moddasi bilan tartibga solinuvchi reeksport rejimida joylashtiradi. Tovarlarni reeksport qilishga ruxsatni bojxona organlari yoki O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining aktlari yoki halqaro shartnomalarga asosan vakolatli organlari beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-fevraldagagi PF-5939-sonli farmoni “Xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni jalg qilishni rag‘batlantirish va bojxona tartiblarini takomillashtirish to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining 2021-yil 4-martdagи 56-sonli qarori “Bojxona hududida qayta ishlash rejimlari va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida”.
3. Karimov D.Q. (2019). *Bojxona huquqi va tizimi: nazariy asoslar va amaliyot*. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.
4. Xolmurodov B.X. (2020). “Bojxona hududida xorijiy xom-ashyo va materiallarni qayta ishlashda yuzaga keladigan muammolar”. *Xalqaro iqtisodiy aloqalar* jurnali, 5(2), 66–73.
5. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi rasmiy veb-sayti – <https://www.customs.uz> (murojaat qilingan sana: 2025-yil 15-aprel).
6. World Customs Organization (WCO). (2021). *Customs Procedures for Processing and Re-exportation of Foreign Materials*. Brussels: WCO Publications.

